Milliy madaniy meros asosida talabalarda ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni rivojlantirish.....	542
<i>Nomanov Kozimjon Kamoliddinovich</i>	
Innovatsion o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda motorikani rivojlantirish yo'llari .....	546
<i>Nuritdinova Xurshida Norpulatovna, Azimova Umida To'ra qizi</i>	
Pedagogical opportunities for developing productive skills in english language learning .....	549
<i>Shohida Otahanova</i>	
Bosh miya o'smasi bo'lgan maktab o'quvchilariga zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish.....	552
<i>Xakimova Gulshat Abdusalomovna, Nurmuhammedova Ruxshoda Mirsodiq qizi</i>	



Traits of Oral Fluid Biochemistry and Physical Chemistry in Children Exhibiting Abnormalities Post-Uranoplasty .....	557
<a href="#">Anvarova Muhtasar Anvarovna</a>	
O'simliklarning abiotik stresslarga chidamliligini oshirishda crispr/cas texnologiyasining ahamiyati .....	561
<a href="#">Saidmurodov Saidali Chori o'g'li, Lutfullayev Nodir Abdusattor o'g'li, Turayev Ozod Sunnataliyevich, Dulanazarov Abror Anvar o'g'li, Xayitova Shahlo Davlatovna</a>	
Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini xorijiy tajribalar asosida boshqarish tizimini takomillashtirish .....	566
<a href="#">Sotimova Barno Marufjonovna</a>	
Tasviriy san'at fanini o'qitishda milliy san'at elementlaridan foydalanishning ayrim metodlari .....	570
<a href="#">Abdullayev Sayfulla Fayzullayevich, Abdullayev Suxrob Sayfullayevich, Zikrillayeva Visola Hamrayevna</a>	
Метод, основанный на построении симметрии при делении угла с недоступной вершиной .....	576
<a href="#">Эсонов Мунавваржон Муқимжонович</a>	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni muhandislik faoliyatiga tayyorlash pedagogik muammo sifatida.....	579
<a href="#">Hamraqulov Yorqin Murtazaqulovich</a>	
Internet tizimida muloqotning gendorologik tipologiyasi .....	584
<a href="#">Raxmonova Barno Odilovna</a>	
Bolalarga xos nutq muhitida etiketning ahamiyati .....	587
<a href="#">Temirova Nargiza Davlat qizi</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda virtual reallik asosidagi texnologiyalardan foydalanish.....	590
<a href="#">Choriyeva Lobar Fayzullo qizi, Teshaboyeva Zamira Sabirovna, Safarov Azamat Rasul o'g'li</a>	
Hozirgi kun pedagogi.....	594
<a href="#">Dehqanova Muborakxon G'iyeziddin qizi</a>	
"Avesto"dagi ta'limiy-axloqiy qarashlarning nazariy asoslari va pedagogik ahamiyati .....	598
<a href="#">Ibragimova Farangiza Oybekjon qizi</a>	
Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-pedagogik muammolarning shakllanish omillari va bartaraf etish yo'llari .....	602
<a href="#">Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</a>	
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarga tayyorlashda strategik menejmentning o'rni va ahamiyati. ....	607
<a href="#">Mannonova Barno</a>	
Scientific-Theoretical Bases of Developing Students' Creative Ability Through Folk Practical Art .....	611
<a href="#">Ruziyeva Mekka Shukhrat kizi</a>	
3-sinf ona tili darslarida integratsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi .....	615
<a href="#">Jurayeva Dildora Ilhom qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</a>	
Kurash mashg'ulotlari jarayonida texnik-taktik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	618
<a href="#">Soatov E. M.</a>	
Talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishga asoslangan dasturiy ta'minot yaratish mohiyati .....	623
<a href="#">Janabergenova Aysuliy Jaksilikovna</a>	
Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar .....	626
<a href="#">Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna</a>	
O'zbek va qoraqalpoq tillarini integratsiyalashgan holda o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	631
<a href="#">Mapruza Embergenova</a>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishda neyropedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati .....	636
<a href="#">Jumayeva Maxbuba O'ktam qizi</a>	
Inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini tashkil etishning uslubiy asoslari .....	641
<a href="#">Narzikulov Javohir Ikromovich</a>	
Диагностический потенциал формирования критического мышления в оценке нравственной воспитанности студентов педагогических вузов.....	645
<a href="#">Азимова Гулрухбону, Абдувалиева Мухайё</a>	



Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari....	652
<i>Ochilova Mohinur</i>	
Oliy ta'limda fransuz tilini o'qitishda qr-kod texnologiyalarining samaradorligi .....	656
<i>Muzaffarova Nodira Mardonovna</i>	
Смарт-технологии как инструмент повышения эффективности управления .....	660
<i>Байбаева Мухайё Худайбергеновна, Дехконова Мохларойим Бахтиёржон кизи</i>	
Odam markaziy asab tizimi taraqqiyoti va uni rivojlantirishning amaliy yechimlri.....	664
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Mentimeter dasturi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	669
<i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>	
Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi renessans pedagogikasining o'rni.....	673
<i>Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna</i>	
Kognitiv rivojlanish zamonaviy ta'lim nazariyasida kompleks fenomen sifatida .....	678
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i>	
Kursantlarning maxsus chidamkorligini oshirishda qo'llaniladigan vosita va usullar .....	681
<i>I. B. Bobomuratov</i>	
The Main Aspects of the Development of Digital Literacy in Higher Pedagogical Education .....	685
<i>Yusupova Go'zal Oybek qizi</i>	
Conceptual Approaches to Understanding Fanaticism Among Female Adolescents.....	689
<i>Sobirova Sojidxon Akramjon qizi</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol texnika va taktikasini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	692
<i>Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich, Sirojiddin Nasriddinov Salohiddin o'g'li</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarining pedagogik xususiyatlari .....	695
<i>Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish ..	699
<i>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</i>	
Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati .....	702
<i>N. T. Tojiboyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari .....	707
<i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i>	
Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	710
<i>Olimov Temir Xasanovich</i>	
Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues .....	715
<i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i>	
O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ...	720
<i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi.....	724
<i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar .....	728
<i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i>	
Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari .....	733
<i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	737
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении .....	742
<i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i>	

Формирование профессиональных компетенций будущих художников через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции.....	745
<a href="#">Д. Б. Бабаева</a>	
Методика и подходы обучения речи в школьной практике .....	750
<a href="#">Шарипов Одилжлон Гуломжон угли</a>	



# INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA MUSIQA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING USLUBIY ASOSLARI

Narzikulov Javohir Ikromovich

Samarqan davlat pedagogika instituti  
"Musiqqa ta'limi va san'at" mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya:** Inklyuziv ta'lim muhitida musiqqa darslarini tashkil etish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ushbu jarayonning metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, turli ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda musiqqa fanining o'rni hamda uning pedagogik va psixologik ahamiyati tahlil qilingan. Inklyuziv sinflarda musiqqa darslarini samarali tashkil etishda qo'llaniladigan metod va texnologiyalar, individual va differensial yondashuvlar hamda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan usullar ko'rib chiqilgan. Maqolada o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, moslashtirilgan o'quv materiallari va qulay ta'lim muhitini yaratish muhim omillar sifatida asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, musiqqa darslari, metodika, pedagogik yondashuv, differensial ta'lim, individual yondashuv, maxsus ta'lim ehtiyojlari, ijodkorlik, ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayoni, moslashtirilgan dastur.

**Abstract:** The organization of music lessons in an inclusive educational environment is of increasing importance in modern education. This article focuses on the methodological foundations of organizing such lessons. It analyzes the role of music as a subject in working with students with diverse educational needs, as well as its pedagogical and psychological significance. The study examines methods and technologies for effectively organizing music lessons in inclusive classrooms, including individualized and differentiated approaches, as well as strategies aimed at developing students' creative activities. The article highlights the importance of teachers' professional competence, the use of adapted learning materials, and the creation of a supportive educational environment.

**Key words:** inclusive education, music lessons, methodology, pedagogical approach, differentiated instruction, individual approach, special educational needs, creativity, educational technologies, learning process, adapted curriculum.

**Аннотация:** Организация уроков музыки в условиях инклюзивного образования в настоящее время приобретает особую значимость. В данной статье раскрываются методические основы организации таких занятий. Анализируется роль предмета музыки в работе с учащимися, имеющими различные образовательные потребности, а также его педагогическое и психологическое значение. Рассматриваются методы и технологии, обеспечивающие эффективную организацию уроков музыки в инклюзивных классах, включая индивидуальный и дифференцированный подходы, а также методы развития творческой активности учащихся. Подчеркивается значимость профессиональной компетентности учителя, использования адаптированных учебных материалов и создания благоприятной образовательной среды.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, уроки музыки, методика, педагогический подход, дифференцированное обучение, индивидуальный подход, особые образовательные потребности, творчество, образовательные технологии, учебный процесс, адаптированная программа.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuv ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarning, jumladan, maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning ham sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga asoslanadi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida musiqqa fanini o'qitishda inklyuziv muhitni yaratish o'quvchilarning estetik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Musiqqa ta'limi o'zining emotsional ta'sir kuchi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. U o'quvchilarda nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalarni, balki ijtimoiy moslashuv, kommunikativ kompetensiyalar va ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradi. Shu bois inklyuziv muhitda musiqqa darslarini to'g'ri tashkil etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Xususan, inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda<sup>1</sup>.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'lim va musiqa pedagogikasi masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, o'zbek olimlari inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, uning amaliy jihatlari hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyatini keng yoritib berganlar.

Masalan, Abdullayeva inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchining roli, individual yondashuvning ahamiyati va pedagogik kompetensiyaning zarurligini ta'kidlaydi<sup>[3]</sup>. Hasanov esa musiqa o'qitish metodikasini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalarning o'rnini alohida ko'rsatib o'tadi<sup>[4]</sup>.

Xorijiy tadqiqotchilar ham musiqa ta'limining inklyuziv muhitdagi o'rni haqida muhim ilmiy xulosalar berganlar. Masalan, Hallam musiqa ta'limining psixologik jihatlari tahlil qilib, uning o'quvchilarning kognitiv va emotsional rivojlanishiga ta'sirini asoslab beradi<sup>[6]</sup>. Elliott esa musiqa ta'limini shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida baholaydi<sup>[7]</sup>. Shuningdek, McPherson va Welch tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda musiqa ta'limi jarayonida individual yondashuv va differensial ta'limning ahamiyati alohida ta'kidlangan<sup>[8]</sup>.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini tashkil etishning uslubiy asoslarini o'rganishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik kuzatuv
- taqqoslash va tahlil qilish
- umumlashtirish
- ilmiy-adabiyotlarni o'rganish

Tadqiqot jarayonida umumta'lim maktablarida musiqa darslarining amaliy holati, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari va ularning o'zlashtirish darajasi tahlil qilindi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini tashkil etish o'ziga xos metodik yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda o'qituvchi har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda darsni tashkil etishi zarur. Avvalo, musiqiy o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda differensial yondashuv muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni qobiliyatiga qarab guruhlariga ajratish, ularga mos topshiriqlar berish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Ikkinchidan, musiqa nazariyasi amaliy faoliyat bilan uyg'un holda o'rgatilishi kerak. Ya'ni qo'shiq kuylash, ritmik harakatlar, musiqa tinglash va cholg'u asboblari bilan ijro etish orqali o'quvchilarda bilim va ko'nikmalar mustahkamlanadi. Uchinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhimdir. Interaktiv metodlar, multimedia vositalari va o'yin texnologiyalari o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularning faolligini ta'minlaydi<sup>[5]</sup>.

Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida ayniqsa musiqiy eshituv, ritmni his qilish va xotira muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu qobiliyatlar muntazam mashg'ulotlar orqali rivojlantiriladi.

"Inklyuziv" atamasi ingliz tilidagi "inclusive" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'z ichiga oluvchi", "qamrab oluvchi", "birlashtiruvchi" degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu tushuncha ta'lim sohasida barcha bolalarni, ularning individual xususiyatlari va ehtiyojlaridan qat'i nazar, yagona ta'lim muhitiga jalb etishni ifodalaydi. Fransuz tilidagi "inclusif" atamasi ham "birgalikda", "hamjihatlikda" degan mazmunni bildirib, inklyuziv ta'limning ijtimoiy mohiyatini ochib beradi<sup>[3]</sup>.

Inklyuziv ta'lim – bu alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar bilan sog'lom tengdoshlari birgalikda ta'lim oladigan jarayon bo'lib, u zamonaviy ta'lim tizimining eng insonparvar va samarali shakllaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuv o'quvchilar o'rtasida tenglik, o'zaro hurmat va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi<sup>[9]</sup>.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini samarali tashkil etish ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq. Agar o'qituvchi individual yondashuvni to'g'ri qo'llasa, hatto musiqiy qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar ham sezilarli natijalarga erishishi mumkin.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son Farmoni, "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", -T.: 2019



Shu bilan birga, o'quvchilarning psixologik holati ham muhim omil hisoblanadi. O'ziga ishonchning pastligi, tortinchoqlik va ijtimoiy muhitga moslasha olmaslik kabi holatlar ularning musiqiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash va ijobiy muhit yaratish muhimdir.

Bugungi kunda dunyo miqyosida maxsus ehtiyojli bolalarni qo'llab-quvvatlash masalasi global ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya" hamda "Ta'lim hamma uchun" dasturi inklyuziv ta'limni rivojlantirishning muhim asoslaridan biri hisoblanadi <sup>[10]</sup>.

O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, Prezident farmon va qarorlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularni jamiyatga integratsiyalash hamda ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, PF-5712-son Farmonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish vazifalari belgilab berilgan <sup>[1]</sup>.

Shuningdek, PQ-4860-son qaror asosida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilinib, unda alohida ehtiyojli o'quvchilar uchun qulay ta'lim muhitini yaratish, ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va ta'lim sifatini oshirish vazifalari belgilangan <sup>[2]</sup>.

Musiq ta'limi inklyuziv muhitda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki musiqa orqali o'quvchilarning nafaqat estetik didi, balki emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va ijodiy qobiliyatlari ham rivojlanadi. Inklyuziv ta'lim texnologiyalariga asoslangan musiqa darslari shunday tashkil etilishi kerakki, unda barcha o'quvchilar, ularning jismoniy, aqliy yoki psixologik xususiyatlaridan qat'i nazar, faol ishtirok eta olsin. Bu esa o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik va differensial yondashuvni talab etadi <sup>[4]</sup>.

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi – alohida ehtiyojli o'quvchilarning umumta'lim maktablarida sifatli va to'laqonli ta'lim olishlarini ta'minlash hamda ular uchun mos shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Bu jarayonda musiqa darslari o'quvchilarning imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etilib, maxsus pedagogik yondashuvlar va moslashtirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi <sup>[6]</sup>.

Inklyuziv ta'lim tizimida musiqa darslarini tashkil etish o'ziga xos metodik yondashuvlarni talab etadi. Bu jarayonda o'quvchilar turli qobiliyatlariga ko'ra guruhlariga ajratiladi, lekin ular yagona maqsad asosida birgalikda faoliyat yuritadilar. Maxsus ta'limdan farqli ravishda inklyuziv ta'lim individual yondashuv asosida, moslashtirilgan o'quv dasturlari orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida musiqa darslarini tashkil etishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur:

- o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- differensial va individual topshiriqlarni qo'llash;
- vizual, eshitish va kinestetik metodlardan foydalanish;
- o'yin texnologiyalari orqali o'qitish;
- jamoaviy ijrochilik orqali ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Ko'zi ojiz yoki ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda esa maxsus metodlar, jumladan, "Braille" yozuvidagi nota tizimi, audio materiallar va eshitish orqali o'rganishga asoslangan metodlar qo'llaniladi. Bu esa o'quvchilarning musiqiy savodxonligini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim muhitida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tashkilotchi, motivator va psixolog sifatida ham faoliyat yuritishi lozim. U o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishi, ularni rag'batlantirishi va ijodiy faoliyatga jalb etishi zarur.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- inklyuziv muhitda differensial yondashuv samarali natija beradi;
- amaliy faoliyatga asoslangan darslar o'zlashtirishni oshiradi;
- zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi;
- individual yondashuv musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini tashkil etish murakkab, ammo samarali pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda o'qituvchining metodik mahorati, individual yondashuvi va zamonaviy texnologiyalarni qo'llay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Musiq ta'limi orqali o'quvchilarning nafaqat musiqiy qobiliyatlari, balki estetik didi, ijtimoiy faolligi va shaxsiy rivojlanishi ham ta'minlanadi. Shu bois inklyuziv musiqa ta'limini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini samarali tashkil etish o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Bu jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yish esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar, individual yondashuv va yuqori kasbiy mahoratni talab etadi. Inklyuziv musiqa ta'limi orqali maktab o'quvchilarida nafaqat musiqiy qobiliyatlar, balki ijtimoiy moslashuv, hamkorlik va estetik dunyoqarash ham shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5712-son Farmoni, “Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, -T., 2019
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish”, -T., 2020
3. Abdullayeva N. Boshlang'ich ta'limda inklyuziv yondashuv. –T.: O'qituvchi, 2021.
4. Hasanov A. Musiqa o'qitish metodikasi. –T.: Fan, 2022.
5. Jalilov F. Pedagogik texnologiyalar. –T.: 2023.
6. Hallam S. The Psychology of Music Education. London, 2015.
7. Elliott D. Music Matters. Oxford University Press, 2014.
8. McPherson G., Welch G. The Oxford Handbook of Music Education. Oxford, 2018.
9. UNESCO, “Inclusive Education Guidelines”, Paris, 2017
10. United Nations, “Convention on the Rights of Persons with Disabilities”, New York, 2006.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.